ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 4

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 4

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 26.04.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV, iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Amonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 26.04.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)

Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)

Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)

Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)

Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)

Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)

Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Шоира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 26.04.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Amonturdieva, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

YERJANOVA SAULE BAYMURZAYEVNA,
TO‘YCHIYEVA ZULEYXA HAMROQO‘LOVNA
Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”
asarida so‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash 7

BERDIYEV XUSAN XOLNAZAROVICH
«Devon-u lug‘otit turk»dagi she’rlarda
hojib va radif san’atlari 13

УМУРҚУЛОВ ЗАФАР БЕКПЎЛАТОВИЧ
Қиёслаш инсон тафаккур тарзининг маҳсули 16

ESHBOYEV QAHRAMON BAKIR O‘G‘LI
So‘zlararo darajalanish o‘quv lug‘atida so‘zlarga izoh berish 20

NAVRUZOVA MUYASSAR GAYBULLAYEVNA
Kasallik nomlarining onomasiologik, semantik ifodasi 24

BOZOROV HAMID XO‘SHMURODOVICH
Antroponimlarning lingvomadaniy xususiyatlari
(O‘zbek xalq ertaklarida mavjud antroponimlar misolida) 28

ДЖАББАРОВА ШОИРА БАЛТАЕВНА
Медиа тилида муқобилсиз лексика таснифлари: назарий ёндашув 33

KULTAYEVA FAZILAT BAXTIYAROVNA
Ergonimlarning morfologik derivatsiyasi xususida 36

HAYDAROVA KAMOLA DAVRANOVNA
O‘zbek, rus va ingliz tillarida meva nomlarining qiyosiy-chog‘ishtirma tahlili 39

TERMIROVA KAMOLA
Ziravor atamalar va ularning lug‘atlarda ifodalanishi 43

TURDIMURODOV SIROJIDIN ESHQOBILOVICH,
JABBOROVA SEVARA BAXTIYOR QIZI
Badiiy matnda evfemik birliklar tahlili 50

SOATOVA YULDUZ
Bobur she’riyatida ayol qaddi-qomatini ifoda etuvchi lingvistik vositalar 53

ТОЛИЕВА ШОИРА ИЛХОМОВНА
Лингвистик экспертиза методларининг тамойиллари 57

AVRIDDINOV JOBIR MUSULMON O‘G‘LI
Sharq olimlarning «Zufongo‘yo va Jahonpo‘yo» lug‘atida ilmiy qarashlari 59

ДАВЛЯТОВА ЭЛЬВИРА МУРАДОВНА
Парадигматические свойства иноязычных лексических единиц
в русском и узбекском языках (на материале интернет медиа) 61

МУНДАРИЖА

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Концепт «богатство» во фразеологизмах
и паремиях узбекского и русского языков 64

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Эволюция лексических единиц обозначающих мужчин и женщин 67

QULMAMATOVA MUATTAR OTABEK QIZI
Ingliz va o‘zbek maqollarida “boylik” konseptining chog‘ishtirma tadqiqi 70

FARZANA NABI,
ABDULLA XUDAYQULOV ESHQUVVATOVICH
Official documents in dari language, its translation challenges 73

ЖАББАРОВА НАРГИЗА ИСЛАМЖАНОВНА,
РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Влияние гендерной лексики на сознание и поведение людей 76

ADABIYOTSHUNOSLIK

ARSLONOV ABDIMUROD KARAMATOVICH
“Qissasi Rabg‘uziy”da xalq og‘zaki ijodi syujetlari va motivlari 80

КАЗАКОВА ГУЛАСАЛ КУРАЛОВНА
Эссе жанрида шахс концепциясининг бадиий-публицистик талқини 82

LOLAYEV SHUXRAT ALIQOBIL O‘G‘LI
Turkistonda “Usuli jadid” maktablarining shakllanishi va ahamiyati 84

USMONOVA MOHIDIL LAZIZ QIZI
Ravnaq g‘azallari tabdilidagi matniy tafovutlar 87

TA’LIM

ABDUQAYUMOVA NARGIZA RAIMOVNA
Bo‘lajak rus-tili o‘qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga
tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish metodikasi 90

naqadar ayanchli, achinarli holatga tushib qolganligi Fitratning “Munozara” asarida ham batafsil aks etgandir. Zero, har bir millat rivojlanishi, yuksalishi uchun ta’lim tizimini isloh etish kerakligi bu bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir.

Resume: In this article, the organization and activities of the schools of the first development module of the modern enlighteners, “usuli jadid” schools, and the attitude of the people of Turkestan to the “usuli jadid” schools are reflected.

Резюме: В данной статье отражены организация и деятелность школ первого модуля развития современных просветителей, школ «усули джадид», а также отношение жителей Туркестана к школам «усули джадид».

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2024; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

RAVNAQ G‘AZALLARI TABDILIDAGI MATNIY TAFOVUTLAR

Usmonova Mohidil Laziz qizi,
Qarshi davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi

Mumtoz adabiyotda adabiy manbalarni tabdil qilish jarayoni o‘ta mas’uliyatli, shu bilan bir qatorda, ancha mashaqqatli ish hisoblanadi. “Manbalar – xoh ular toshbitiklar bo‘lsin, xoh qo‘lyozmalar bo‘lsin yoki litografik nashrlar bo‘lsin, o‘sha o‘zi mansub davrning in’ikosidir. Vatanimiz qo‘lyozma xazinalarida saqlanayotgan minglab qo‘lyozma yodgorliklar ulug‘ ajdodlarimizning tafakkuri, o‘y-u tuyg‘ularini, ilm- u ma’rifatlarini, orzu va armonlarini mujassam etgan bitmas-tuganmas xazinadir. Ushbu manbalarga nechog‘lik yondashish va qay yo‘sinda tadqiq etish masalasi hamda davrlarda ham dolzarb bo‘lgan”[1]. Ayniqsa, lirik shoirlar devonining qo‘lyozma va toshbosma nusxalarini ilmiy jamoatchilik va keng ommaga yetkazish uchun, eng avvalo, matnni tabdil qiluvchi kishi arab, fors va eski o‘zbek yozuvidan yaxshigina xabardor bo‘lishi, mumtoz matnlarda uchrovchi so‘z va tushunchalar mohiyatini chuqur bilishi talab etiladi. Eski o‘zbek yozuvidagi ba’zi matnlarda asl matnga xattotlar tomonidan ba’zi o‘zgartirishlar kiritilgan. Bir shoir qalamiga mansub, ammo bir necha xattotlar tomonidan ko‘chirilgan devonlarda bir qator matniy farqlarga duch kelish mumkin. Ularning har biri bilan tanishgan holda devonning eng mukammal va asliyatga yaqin varianti tiklash uchun ba’zan yillar kerak bo‘ladi.Shuning uchun bu sohada amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar, yechimini kutayotgan muammolar talaygina.

“Klassik ijodkorlar o‘z asarini yozib bo‘lgach, tinchigan emas. Keyingi kulliyotlarda, devon tuzish jarayonida uni qayta ko‘rib, jiddiy o‘zgartirishlar ham kiritgan. Tadqiqotchi Sharq qo‘lyozmalari ustida ishlaganda buning singari holatlarni nazardan chetda qoldirmasligi kerak. Sharq qo‘lyozma manbalariga o‘ziga xos ilmiy yondashuv talab etiladi[2]. Xususan, xonliklar davri adabiyoti (adabiy muhitlar) davrida lirik shoirlar tomonidan yuzlab devonlar yaratildi. Ular hozirda Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda. Ayni shu devonlardagi g‘azallarning bizga ma’lum o‘zbek tilidagi varianti bilan asl matnni solishtirganimizda ba’zi farqli jihatlarga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Quyida Xorazm adabiyotining atoqli vakili bo‘lgan Pahlavonquli Ravnaq g‘azallarining darsliklarda berilgan varianti bilan asl devondagi matnini qiyosan solishtirgan holda, ulardagi ba’zi tafovutlarga to‘xtalamiz.

Ravnaq XVIII asrda yashagan va lirikaning o‘nlab janrlarida barakali ijod qilgan. Ravnaqning lirik merosi o‘sha davrda yaratilgan bayozlar va to‘plamlar tarkibiga kiritilgan. Shuningdek, shoir o‘z g‘azallarini to‘plab “Devoni Ravnaq” nomli devon tartib bergan. Ushbu devonda Ravnaqning g‘azal, muxammas,

[1] Jo‘raboyev O. Matnning matn osti sirlari. – Toshkent: Tamaddun, 2017. – Б.87.

[2] Sodiqov Q. Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari. – Toshkent, 2017. – Б.6.

mustazod, qasida kabi janrlardagi she'rlari o'rin olgan. Ravnaq ijodining adabiyotshunoslikda o'rganilishi, asosan, mustaqillikdan oldingi davrlarga to'g'ri keladi. Bu borada akademik Vohid Abdullayev tadqiqotlari alohida e'tiborga molik. Bundan tashqari, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tomonidan yaratilgan "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligining 3-tomida Ravnaq hayoti va ijodiga ancha keng to'xtalingan va uning bir qancha g'azallari mazmun va poetika jihatidan tahlilga tortilgan. Darslikdan o'rin olgan "Pahlavonquli Ravnaq" sarlavhali salmoqli maqola filologiya fanlari nomzodi Oyto'ra Rasulova tomonidan yozilgan.

Mazkur darslikdagi berilgan g'azallarni "Devoni Ravnaq"da keltirilgan g'azallar bilan qiyoslash jarayonida tabdildagi ba'zi xatoliklar borligi kuzatiladi. Jumladan, Ravnaqning Lutfiy g'azaliga ergashib yozilgan "Xoh inon, xoh inonma" radifli g'azali matla'si darslikda quyidagicha:

Jonim sevarim, xoh inon, xoh inonma,
Kuydi jigarim, xoh inon, xoh inonma.
Ravnaq devonidagi bayt esa:
Yondim sevarim, xoh inon, xoh inonma,
Kuydi jigarim, xoh inon, xoh inonma.

Mazmunan "jigar kuyishi", ya'ni oshiqning o'rtanishi uning ishq o'tida yonganidan dalolat beradi. Shuning uchun, darslikdagi "jonim" so'zi noto'g'ri tabdil qilingan. Bunda ikkita taxminni ilgari surish mumkin: Avvalo, qo'lyozma matnlar, asosan, nastaliq xatida ko'chirilgani sababli ularning yozuvdagi shakli, ya'ni yozilishi bir-biriga yaqin (جانيم – يانديم) bo'lganligi tabdil qiluvchini adashtirgan bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, Ravnaq lirik asarlari uning devonidan tashqari, turli bayozlardan ham o'rin olgan va olimaning devondan emas, balki yondosh manbalardan foydalangani bilan bog'liq. Bizningcha, Vohid Abdullayev maqolasida ham bu baytning "yondim sevarim" shaklida qo'llangani eng to'g'ri variant hisoblanadi.

Darslikdagi quyidagi baytlarga e'tibor qaratamiz:
Halokimni tilarlar bir necha g'addoru hosidlar,
Xudoyo sen bilursen ***bilmon*** *ne gunohim bor.*
Mani *mazlumni saqla* ***xudoyo*** *o'z panohingda,*
Kim emdi zulmdin *Ravnaq* ***gahe*** *holi tabohim bor.*[1]
Shoir devonida esa ushbu g'azal quyidagicha:
Halokimni tilarlar bir necha g'addor-u hosidlar,
Xudoyo, sen bilursen, ***hech bilmon,*** *ne gunohim bor.*
Mane *mazlumni saqla,* ***Iloho****, o'z panohingda –*
Ki, a'do *zulmidin Ravnaq* ***kibi*** *holi tabohim bor*[2].

Ko'rinadiki, darslik va qo'lyozmadagi matnlarda bir talay tafovutlar mavjud. Birinchidan, darslikdagi ikkinchi va uchinchi misralardagi undalma sifatida qo'llangan "Xudoyo" so'zi tinish belgi bilan ajratilmagan. Hatto, uchinchi misrada kichik harf bilan ham ifodalangan. Ikkinchidan, darslikdagi matnning ikkinchi misrasidan "hech" so'zi tushirib qoldirilishi vazn buzilishi olib kelgan. Uchinchidan, ikkinchi baytdagi beshta so'zning darslikdagi matnda o'zgartirilishi mazmun g'alizligiga sabab bo'lgan. Asliyatdagi shakliga ko'ra, baytning mazmuni lirik qahramon tilidan quyidagicha ifodalanadi: – *Ey Allohim, mendek mazlumni o'z panohingda saqlaginki, dushmanlarning zulmidan Ravnaq kabi xarob ahvoldaman.* Darslikdagi matnda esa ushbu mazmun buzilgani yaqqol ko'rinib turibdi.

Tabdildagi bu o'zgarishlar bevosita ijodkorning baytlarda qo'llangan badiiy niyati ifodasiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Buni darslik va qo'lyozmadagi matnlar qiyosi misolida ko'plab uchratish mumkin.

"Devoni Ravnaq"ning 36-sahifasida "Bor" radifli g'azal mavjud:

Nodon aziz-u muhtaram-u lek xordur,
Har ***odameki*** *donishi ta'bi rasosi bor*[3].

Darslikda ushbu baytdagi "odameki" so'zi o'rniga, "olimeki" so'zi qo'llangan. Vaholanki, eski o'zbek yozuvida bu ikki so'zning yozilishi turlicha: odam (آدم), olim (عالم). Olima bayt tahliliga to'xtalib, "ekspluatatsiyaga asoslangan feodalizm tuzumida progressiv fikrdagi ma'rifatparvar olim va shoirlarning moddiy tomondan siqilganligini, ularning ayanchli ahvolini haqqoniy tasvirlaydi"[4] deb noxolis xulosa chiqaradi. G'azal matnini kuzatadigan bo'lsak, unda shoir dunyoning bevafoligi, dunparvarligi yomonlarning izzatda, yaxshilarning uqubatda yashashini tasvirlaydi, xolos. Fikrimizcha, bu o'rinda matn hukmron mafkura qoliplariga moslashtirilgan.

Ravnaqning darslikdagi ijtimoiy lirikasi tahlilida keltirilgan g'azallarda ham matniy tafovutlarni kuzatish mumkin:

Ta'makim sendadur xarvor-xarvor,
Ajab yo'q bo'lmog'ing xalq oldida xor.
Ishing aybi kishiga ta'n etarsen;
Nedur tig'ing senga bu bo'lsa kirdor[5].

Devonda esa "ajab yo'q" birikmasi o'rniga "ajabkim" so'zi qo'llangan. to'rtinchi misra esa quyidagicha:

Ishing aybu kishiga ta'n etarsen,
Nedur ta'ning sanga bu bo'lsa gar dor[6].

[1] O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 3-tom. – Toshkent: Fan, 1978. – Б.276.

[2] Devoni Ravnaq. Qo'lyozma. – O'zR FASHI fondi, Inv.№922. – Б.34.

[3] Devoni Ravnaq. Qo'lyozma. – O'zR FASHI fondi, Inv.№922. – Б.36.

[4] O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 3-tom. – Toshkent: Fan, 1978. – Б.273.

[5] O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 3-tom. – Toshkent: Fan, 1978. – Б.274.

[6] O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 3-tom. – Toshkent: Fan, 1978. – Б.48.

Mazmuni: Qilayotgan ishing ayb bo‘lsa ham, boshqalarga ta’na qilasan. Aslida bu ishing (birovlarni ta’na qilishing) o‘zing uchun dor bo‘ladi.

Ko‘rinadiki, misralarda mazmun turlicha ifodalangan. “Ta’n” so‘zi o‘rniga “tig‘” so‘zining ishlatilishi mantiqiy jihatdan ham to‘g‘ri kelmaydi. Negaki, undan oldingi misrada shoir zamonni kishini nohaq ayblashda “ta’n etishda” ayblamoqda ekan, demak keyingi misrada ham shu so‘zni (ta’n) qo‘llash bayt mazmuniga to‘laqonli mos keladi. Yana bir jihat borki, eski o‘zbek tilida “kirdor” va “gar dor” so‘zlari bir xil yoziladi (کردار). Shu sababdan, darslikda misra xato o‘qilgan bo‘lishi mumkin. Biroq, “kirdor” mustaqil emas, balki qo‘shma so‘z tarkibida “qiliq, ravish, tarz ko‘rinishida qo‘llanadigan birlik. Masalan, badkirdor – yomon qiliqli, yomon tabiatli kabi.

Boshqa bir bayt sharhiga e’tibor qaratamiz:

Adam ahlida, fig‘onkim, mane nokom kibi,
Gardishi davri falak bergan emas yod hanuz[1].

Ravnaq devonidan olingan ushbu baytda “adam ahli” deya shoir yo‘qlik ahlini nazarda tutmoqda. Aylanuvchi davri falak esa haligacha o‘zi singari boshqa bir bechorani ko‘rmagan. Bu baytda, asosan, zamondan shikoyat motivlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Biroq ushbu baytning darslikdagi tabdili biroz boshqacha:

Sitam ahlidin fig‘onkim mani nokom kibi,
Gardishi davri falak bergan emas bod hanuz[2].

“Sitam” so‘zining baytda qo‘llanishi butunlay boshqa ma’no tashiydi. Ikkinchi misradagi “yod”ning “bod”ga aylanishi, ularning yozuvdagi shakliy yaqinligi (باد – یاد), aniqrog‘i anglash qiyin bo‘lgan birgina nuqta bilan farqlanishi natijasida yuzaga kelgan. Bu esa asl matndagi ifodalangan mazmundan keskin farq qiluvchi ma’no anglatadi va ma’noviy g‘alizlik yuzaga keladi.

Darslikdan o‘rin olgan Ravnaq lirikasiga oid quyidagi misralarda ham ayrim matniy nuqsonlar mavjud:

Ul qimizning gar kabkka bo‘lg‘ay erdi dilxoh,
Sho‘rboyi issig‘ bor esa qo‘y go‘shti semiz[3].

Bu baytdagi “gar kabkka” so‘zi tushunarsiz va baytga deyarli ma’no ifodalamaydi. “Devoni Ravnaq”da bu bayt quyidagicha:

Ul qimizning gazakig‘a bo‘lg‘ay erdi dilxoh,
Sho‘rboyi issig‘ bor esa qo‘y go‘shti semiz[4].

Mazmuni: semiz qo‘y go‘shtining sho‘rvasi qimizga diltortar, yoqimli gazak bo‘ladi. “Gazakig‘a” so‘zini “gar kabkka” tarzida tabdil qilinishi mazmuniy g‘alizlikni keltirib chiqargan. Keyingi baytning ham darslikdan o‘rin olgan varianti xatolikdan xoli emas:

Qayda ilg‘ay ko‘ziga shohning atlas to‘nini,
*Har **gadoyeki bor** faqr yo‘lida **qasri** qimiz*[5].

Mazkur baytning ikkinchi misrasi devonda quyidagicha:

*Har **gadoyeki kiyar** faqr yo‘lida **qaro** kiyiz*[6].

Ikiinchi misra matnidagi uchta so‘zning darslikda butunlay o‘zgarib ketishi tushunarsiz mazmun keltirib chiqargan. Bizningcha, bu ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning yozuvdagi shakldoshligi bilan bog‘liq. Devondan o‘qigan variantimiz mazmunan tugal va poetik mukammal hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinadiki, adabiyotshunoslikda Ravnaq lirikasini o‘rganish bo‘yicha bir qancha chalkashliklar va munozarali masalalar mavjud. Shu sababdan, hozirgi matnshunoslik va adabiyotshunoslik oldida turgan eng muhim masalalardan biri bu – nafaqat Pahlavonquli Ravnaq, balki boshqa ijodkorlar adabiy merosini ham mukammal, xatolardan holi tarzda o‘quvchilarga yetkazishdir. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, devon tabdilida qilingan birgina xato ham kelgusida bir necha o‘nlab xatolarga sabab bo‘lishi mumkin. Bu muammolarni yechish uchun, eng avvalo, ishni mavjud darsliklarni isloh qilishdan boshlash zarur.

Resume. The article compares the versions of the ghazals of Pahlavankuli Ravnak, a famous representative of Uzbek classical literature, with the original ghazal text in the poet’s devan, by focusing on the textual differences in them.Changes in meaning caused by misinterpretation are discussed.

Резюме. В статье сравниваются варианты газелей Пахлаванкули Равнака, известного представителя узбекской классической литературы, с оригинальным текстом газели в деване поэта, акцентируя внимание на текстуальных различиях в них. Обсуждаются смысловые изменения, вызванные неправильным толкованием.

[1] Devoni Ravnaq. Qo‘lyozma. – O‘zR FASHI fondi, Inv.№922. – Б.54.
[2] O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 3-tom. – Toshkent: Fan, 1978. – Б.284.
[3] O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 3-tom. – Toshkent: Fan, 1978. – Б.269.
[4] Devoni Ravnaq. Qo‘lyozma. – O‘zR FASHI fondi, Inv.№922. – Б.56.
[5] O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 3-tom. – Toshkent: Fan, 1978. – Б.269.
[6] Devoni Ravnaq. Qo‘lyozma. – O‘zR FASHI fondi, Inv.№922. – Б.56.